O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
UCHQO'RG'ON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

2022 - yil 23 - dekabr 731-6-87-Q/22 Uchqo‘rg‘on tuman hokimligi

Uchqo'rg'on tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Uchqo'rg'on tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Uchqo'rg'on tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (X.Ataxanov) tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Boltaboyev)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHX guruhi (Z.Boboxonov)ga mazkur yo‘l belgisi o‘rnatilishini hamda shahar hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Yorqin hayot” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Sobitxo’jayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.N.Rizzayev**

Uchqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 23 dekabrdagi
731-6-87-Q/22-son qaroriga
1-ilova

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Yo‘l belgisi nomi
4К 433 “Xaqulobod sh-Shaxrixonchek q-Toshloq q-Shoariq q-Shoitmozor q”			
1	“Baxriobod” MFY	PK 5+500(yo‘lning boshlanishi) o‘ng-chap tomon	1.31-suniy yo`l notekisligi
2	“Baxriobod” MFY	PK 5+700(yo‘lning boshlanishi) o‘ng-chap tomon	1.31-suniy yo`l notekisligi
3	“Qo`gay O`lmas” MFY	PK 11+800(yo‘lning boshlanishi) o‘ng-chap tomon	1.31-suniy yo`l notekisligi